



## Hududiy sanoat parklarining samaradorligini oshirish va ularni boshqarishning zamonaviy iqtisodiy modellari

Utaganova Xadicha Xalilovna

“Iqtisodiyot va pedagogika universiteti” NTM “Iqtisodiyot” yo’nalishi 1-bosqich magistranti

### Annotatsiya

Mazkur maqolada hududiy sanoat parklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari hamda innovatsion iqtisodiy modellari tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat parklarining hududiy rivojlanishdagi o’rni, investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida sanoat parklarini boshqarishda klaster yondashuvi, davlat-xususiy sheriklik modeli hamda raqamli iqtisodiyot elementlaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Hududiy sanoat parklari, iqtisodiy samaradorlik, innovatsion boshqaruv, klaster modeli, investitsiya muhiti, raqamli iqtisodiyot, davlat-xususiy sheriklik, sanoat infratuzilmasi, modernizatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

### Аннотация

В данной статье исследуются вопросы повышения эффективности региональных промышленных парков и современные экономические модели их управления. Рассмотрены роль промышленных парков в региональном развитии, механизмы привлечения инвестиций, совершенствование производственной инфраструктуры и внедрение цифровых систем управления. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по эффективному использованию кластерного подхода, государственно-частного партнерства и элементов цифровой экономики в управлении промышленными парками.

**Ключевые слова:** Региональные промышленные парки, экономическая эффективность, инновационное управление, кластерная модель, инвестиционный климат, цифровая экономика, государственно-частное партнерство, промышленная инфраструктура, модернизация, экономическое развитие.

### Abstract

This article examines ways to improve the efficiency of regional industrial parks and explores modern economic models for their management. The study highlights the role



of industrial parks in regional development, attracting investments, improving industrial infrastructure, and implementing digital management systems. Based on the research findings, scientific and practical recommendations were developed for the effective application of cluster approaches, public-private partnership models, and digital economy elements in the management of industrial parks.

**Keywords:** Regional industrial parks, economic efficiency, innovative management, cluster model, investment climate, digital economy, public-private partnership, industrial infrastructure, modernization, economic development.

### Kirish (Introduction)

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy sanoat parklarini tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Sanoat parklari iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishda, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganligi, logistika tizimlarining samaradorligi va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi sanoat parklarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shu sababli rivojlangan davlatlar tajribasida sanoat parklarini boshqarishning klaster modeli, innovatsion boshqaruv tizimlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va raqamli iqtisodiyot elementlari keng qo'llanilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sanoat parklarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hududlarda erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari hamda texnoparklarning tashkil etilishi sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan kengaytirishga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim sanoat parklarida boshqaruv tizimining yetarli darajada samarali emasligi, investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar, innovatsion texnologiyalarning sust joriy etilishi hamda infratuzilma bilan bog'liq kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan zamonaviy iqtisodiy modellardan foydalanishni talab etadi.

Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi hududiy sanoat parklarining samaradorligini oshirish hamda ularni boshqarishning ilg'or iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati bilan izohlanadi. Tadqiqot davomida sanoat parklarini boshqarishning xalqaro



tajribasi, innovatsion yondashuvlari va raqamli boshqaruv tizimlari tahlil qilinadi hamda O‘zbekiston sharoitiga mos ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### **Mavzuga bo‘yicha adabiyotlar tahlili (Literature review)**

Hududiy sanoat parklarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiyot fanida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan sanoat hududlarini boshqarish, innovatsion rivojlanish, investitsion muhitni shakllantirish hamda klaster tizimlarini rivojlantirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Michael Porter sanoat klasterlari nazariyasini ishlab chiqib, hududiy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishda klaster yondashuvining muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. Uning ilmiy qarashlariga ko‘ra, korxonalar o‘rtasidagi hududiy integratsiya va kooperatsiya ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Alfred Marshall tomonidan ishlab chiqilgan “sanoat hududlari” nazariyasida korxonalarining bir hududda joylashuvi mehnat unumdorligi va innovatsion rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi ta‘kidlangan.

Hududiy rivojlanish va sanoat infratuzilmasini boshqarish masalalari bo‘yicha Paul Krugmanning yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning fikricha, sanoat ishlab chiqarishining ma‘lum hududlarda jamlanishi transport xarajatlarini kamaytiradi, investitsion jozibadorlikni oshiradi va iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi.

Sanoat parklarini boshqarishda innovatsion va raqamli iqtisodiyot mexanizmlaridan foydalanish masalalari Peter Drucker hamda Joseph Schumpeter ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ular innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili ekanligini hamda zamonaviy boshqaruv tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta‘kidlaganlar.

MDH davlatlari olimlari tomonidan ham sanoat parklarini boshqarish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari chuqur o‘rganilgan. Jumladan, Rossiyalik iqtisodchi olimlar sanoat parklarini rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o‘rni, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash va investitsion siyosat samaradorligini tadqiq etganlar.

O‘zbekistonlik olimlardan Yo‘ldosh Abdullayev, Qo‘chqorov Qobiljon hamda boshqa iqtisodchi tadqiqotchilar tomonidan hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati, sanoat infratuzilmasini takomillashtirish va investitsiyalarni jalb qilish masalalari o‘rganilgan. Ularning ilmiy ishlarida sanoat hududlarini samarali boshqarish orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkinligi qayd etilgan.



Shuningdek, so‘nggi yillarda sanoat parklarini boshqarishda “aqli boshqaruv” tizimlari, raqamli monitoring, logistika infratuzilmasini optimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini sanoat parklariga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

### Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Mazkur tadqiqot ishida hududiy sanoat parklarining samaradorligini oshirish va ularni boshqarishning zamonaviy iqtisodiy modellarini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil usuli, statistik tahlil usuli, iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar ( Analysis and results).

#### Tahlil va natijalar

Hududiy sanoat parklarining samaradorligini baholashda sanoat ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqaradigan sanoat ulushi, hududiy ixtisoslashuv, infratuzilma ta‘minoti va investitsion faollik asosiy mezonlar sifatida qaraladi. 2024–2025-yillar statistik ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat yetakchi o‘rinni egallab, sanoat parklarini rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy baza shakllanmoqda. Xususan, 2024-yilda viloyatda ishlab chiqaradigan sanoat hajmi 32 080,1 mlrd so‘mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,2 foiz bo‘lgan. 2025-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 39 236,4 mlrd so‘mga yetib, jami sanoatdagi ulushi 82,1 foizni tashkil qilgan. Bu holat hududda sanoat parklarini qayta ishlash, kooperatsiya, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratish yo‘nalishida rivojlantirish imkoniyati yuqori ekanini ko‘rsatadi.

*1-jadval*

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi,  
2024–2025-yillar

T/r	Sanoat tarmog‘i	2024- yil, mlrd so‘m	Ulushi, %	2025- yil, mlrd so‘m	Ulushi, %	2024–2025- yillardagi o‘sish, %
1	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1 850,6	4,7	2 107,9	4,4	13,9
2	Ishlab chiqaradigan sanoat	32 080,1	81,2	39 236,4	82,1	22,3



3	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	5 359,3	13,6	6 188,8	13,0	15,5
4	Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	198,2	0,5	255,5	0,5	28,9
<b>Jami</b>	<b>Sanoat ishlab chiqarishi</b>	<b>39 488,2</b>	<b>100,0</b>	<b>47 788,6</b>	<b>100,0</b>	<b>21,0</b>

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2024–2025-yillarda viloyatda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi 39 488,2 mlrd so‘mdan 47 788,6 mlrd so‘mga oshgan. Bu esa nominal hisobda 21,0 foizlik o‘shni anglatadi. Eng katta o‘sh suv ta‘minoti va chiqindilarni utilitatsiya qilish tarmog‘ida kuzatilgan bo‘lsa-da, sanoat parklarining iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy yo‘nalish ishlab chiqaradigan sanoat hisoblanadi. Mazkur tarmoqning 2025-yilda 39 236,4 mlrd so‘mga yetgani hududiy sanoat parklarini qayta ishlash sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat, kimyo, qurilish materiallari va boshqa kooperatsion ishlab chiqarish tarmoqlari asosida rivojlantirish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoat parklarining samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki hududiy joylashuv, infratuzilma, boshqaruv mexanizmi va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya darajasi bilan ham belgilanadi. 2024-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, Qashqadaryo viloyatida jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Nishon tumani, Qarshi shahri, G‘uzor tumani, Qarshi tumani va Kitob tumani hissasiga to‘g‘ri kelgan. Xususan, Nishon tumani 23,9 foiz, Qarshi shahri 12,7 foiz, G‘uzor tumani 11,4 foiz, Qarshi tumani 6,7 foiz va Kitob tumani 4,3 foiz ulushga ega bo‘lgan. Bu holat sanoat parklarini joylashtirishda sanoatlashgan hududlar bilan bir qatorda, infratuzilma va xomashyo bazasi yetarli bo‘lgan tumanlarni ham ustuvor rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida sanoat parklarini rivojlantirish uchun asosiy iqtisodiy natijalar va boshqaruv xulosalari

T/r	Tahlil yo‘nalishi	2024–2025-yillardagi statistik holat	Sanoat parklariga ta‘siri	Boshqaruv bo‘yicha natija
-----	-------------------	--------------------------------------	---------------------------	---------------------------



1	Sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmi	2024-yilda 39 488,2 mlrd so‘m, 2025-yilda 47 788,6 mlrd so‘m	Sanoat parklarida ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun iqtisodiy asos kuchaygan	Parklarni faqat yer ajratish modeli emas, balki ishlab chiqarish natijasiga yo‘naltirilgan boshqaruv modeli asosida rivojlantirish zarur
2	Ishlab chiqaradigan sanoat ulushi	2024-yilda 81,2 %, 2025-yilda 82,1 %	Qayta ishlash, kooperatsiya va qo‘shilgan qiymat zanjiri uchun yuqori imkoniyat mavjud	Klaster modeli va tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish maqsadga muvofiq
3	Hududiy sanoat konsentratsiyasi	Nishon, Qarshi shahri, G‘uzor, Qarshi va Kitob tumanlarida sanoat ulushi yuqori	Sanoat parklarini tabiiy resurs, transport va mavjud ishlab chiqarish bazasiga yaqin joylashtirish samaradorlikni oshiradi	Har bir sanoat parkiga hududiy ixtisoslashuv konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak
4	Infratuzilma tarmoqlari	Elektr-gaz ta‘minoti 2025-yilda 6 188,8 mlrd so‘m, suv va utilitatsiya 255,5 mlrd so‘m	Energiya, suv, chiqindi va logistika infratuzilmasi sanoat parklarining barqaror ishlashiga bevosita ta‘sir qiladi	“Tayyor infratuzilma + rezident korxonalar + xizmat ko‘rsatish” modeli joriy etilishi lozim
5	Raqamli va zamonaviy	Ishlab chiqarish hajmi oshgani sari monitoring,	Raqamli platformalarsiz parklar faoliyatini	Yagona raqamli monitoring, KPI baholash va



	boshqaruv ehtiyoji	resurs nazorati va tezkor qaror qabul qilish zarurati kuchaymoqda	samarali muvofiqlashtirish qiyinlashadi	rezidentlar faoliyatini onlayn kuzatish tizimini joriy etish zarur
--	-----------------------	---	---	---

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida sanoat parklarini rivojlantirish uchun yetarli ishlab chiqarish bazasi mavjud. 2025-yilda viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilga nisbatan 7,2 foizga o'sgani ham hududiy sanoat salohiyatining barqaror kengayayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sanoat parklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ularni oddiy ishlab chiqarish maydoni sifatida emas, balki klasterlashgan, infratuzilmaviy jihatdan tayyor, raqamli boshqaruvga asoslangan va eksportga yo'naltirilgan sanoat ekotizimi sifatida tashkil etish zarur.

Ilmiy-amaliy jihatdan qaralganda, 2024–2025-yillar statistikasi sanoat parklarini boshqarishda uchta muhim natijani ko'rsatadi. Birinchidan, ishlab chiqaradigan sanoat ulushining yuqoriligi sanoat parklarini qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratish markaziga aylantirish imkonini beradi. Ikkinchidan, hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining notekis taqsimlangani har bir tuman uchun alohida ixtisoslashgan sanoat parki modelini ishlab chiqishni talab qiladi. Uchinchidan, infratuzilma, energiya ta'minoti, suv va chiqindilarni qayta ishlash tizimi sanoat parklarining barqaror ishlashida hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hududiy sanoat parklarining samaradorligini oshirish uchun zamonaviy iqtisodiy boshqaruv modeli klaster yondashuvi, davlat-xususiy sheriklik, raqamli monitoring, rezident korxonalar faoliyatini KPI asosida baholash va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirishga tayanishi lozim. Qashqadaryo viloyati misolida 2024–2025-yillardagi sanoat o'sishi mazkur yondashuvlarni amaliyotga joriy etish uchun yetarli iqtisodiy asos mavjudligini ko'rsatadi.

### **Xulosa va takliflar(Conclusion and suggestions)**

Mazkur tadqiqot ishida hududiy sanoat parklarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda ularni boshqarishning zamonaviy iqtisodiy modellari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sanoat parklarini samarali tashkil etish va boshqarish hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsiyalar hajmini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar asosida sanoat parklarining faoliyat samaradorligiga infratuzilmaning



rivojlanganlik darajasi, investitsion muhit, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, logistika tizimi va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviyligi bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda sanoat parklarining boshqaruv tizimi yetarli darajada takomillashmaganligi, raqamli texnologiyalarning sust joriy etilgani hamda investitsiyalarni jalb qilishdagi muammolar mavjudligi kuzatildi.

Tadqiqot davomida rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilib, sanoat parklarini boshqarishda klaster modeli, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda raqamli boshqaruv tizimlaridan foydalanish yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib kelishi asoslab berildi. Ayniqsa, "aqli boshqaruv" va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanishda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, hududiy sanoat parklarini boshqarishda zamonaviy iqtisodiy modellardan foydalanish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, balki hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Mazkur taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish O'zbekistonda sanoat parklarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'rinov S. Innovatsion boshqaruv va sanoat parklarining iqtisodiy samaradorligi. – Toshkent: Universitet, 2022.
2. Axmedov N. Klaster yondashuvi asosida hududiy sanoatni rivojlantirish yo'llari. – Samarqand: Zarafshon, 2021.
3. Xolmatov B. Davlat-xususiy sheriklik asosida sanoat parklarini rivojlantirish istiqbollari. // "Biznes-ekspert" jurnali. – Toshkent, 2022.
4. Rasulov A. Investitsion siyosat va hududiy rivojlanish. – Toshkent: Moliya, 2019.
5. Abdullayev Y. Hududiy iqtisodiyot va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
6. Qo'chqorov Q. Sanoat zonalarini boshqarishning innovatsion mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
7. Paul Krugman. *Geography and Trade*. – Cambridge: MIT Press, 1991
8. Joseph Schumpeter. *The Theory of Economic Development*. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sanoat zonalarini va texnoparklarni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
10. Karimov Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat parklarini boshqarish samaradorligi. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali. – Toshkent, 2023.